

NOSPETSIFIK YARALI KOLITLARDA DISREGENERATOR JARAYONLARNING IMMUNOGISTOKIMYOVIY O'ZGARISHLARI

Saydaliyev S.S., Mamataliyev A.R., Mamataliyeva M.A.

Andijon davlat tibbiyot instituti

Annotatsiya

Nospetsifik yarali kolitda yo'g'on ichak shilliq pardasida rivojlanadigan disregenerator jarayonlarni immunogistokimyoviy usullarda monoklonal antitelalar orqali Ki-67, P53, Bcl antigenlarini hujayralardagi ekspressiyasi o'rganilgan. Nyak-larning o'tkir davrida R53 markerining ekspressiyalanish ko'rsatkichi doim Ki-67 markeri bilan paralell ravishda yuqori pozitiv ekspressiyalandi. Yo'g'on ichak shilliq qavatlarida nekrotik jarayonni ustunligi hujayrada, onkoprotein to'planishini kamaytirishi va apoptozga uchraganligini yuqori bo'lishi kuzatildi. Surunkali NYak-ning qo'zish davrida bez tarkibidagi barcha hujayralarda apoptoz jarayonini o'tkir davrga nisbatan oshganligi, shilliq qavatda atrofik sklerotik ko'rinishdagi jarayonlar rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi.

Kalit so'zlar: nospetsifik yarali kolit, yo'g'on ichak, Ki-67, P53, Bcl antigenlar, ekspressiyalanish, atrofiya, skleroz.

IMMUNOHISTOCHEMICAL CHANGES IN DEGENERATIVE PROCESSES IN NONSPECIFIC ULCERATIVE COLITIS

Saydaliev S.S., Mamadaliev A.R., Mamatalieva M.A.

Andijan State Medical Institute

Abstract

Cellular expression of Ki-67, P53, Bcl antigens by monoclonal antibodies has been studied in immunohistochemical methods of dysregenerative processes that develop in the colon mucosa in nonspecific ulcerative colitis. During the NUC' acute period, the expression index of the R53 marker has always been parallelly highly positive expressed with the Ki-67 marker. It was observed that the predominance of the necrotic process in the mucous membranes of the colon in the cell, reduces the accumulation of oncoprotein and has a high incidence of apoptosis. The fact that chronic NUC increased the apoptosis process in all cells in the gland in the Lambs compared to the acute period was manifested by the development of processes with atrophic sclerotic manifestations on the mucous membrane.

Keywords: nonspecific ulcerative colitis, colon, Ki-67, P53, Bcl antigens, expression, atrophy, sclerosis.

ИММУНОГИСТОХИМИЧЕСКИЕ ИЗМЕНЕНИЯ В ДИСРЕГЕНЕРАТИВНЫХ ПРОЦЕССАХ ПРИ НЕСПЕЦИФИЧЕСКИХ ЯЗВЕННЫХ КОЛИТАХ

Сайдалиев С.С., Маматалиев А.Р., Маматалиева М.А.

Андижанский государственный медицинский институт

Аннотация

При неспецифическом язвенном колите изучена клеточная экспрессия антигенов Ki-67, p53, BCL через моноклональные антитела иммуногистохимическими методами дисрегенеративных процессов, развивающихся в слизистой оболочке толстой кишки. Показатель экспрессии маркера r53 в острый период НЯК всегда экспрессировался параллельно с маркером Ki-67 с высокой положительной экспресссией. Было замечено, что преобладание некротического процесса в слизистой оболочке толстой кишки снижает накопление онкопротеинов в клетке и повышает вероятность апоптоза. Хронический НЯК проявлялся повышением процесса апоптоза во всех клетках железы в период овуляции по сравнению с острым периодом, развитием процессов атрофического склеротического вида в слизистой оболочке.

Ключевые слова: неспецифический язвенный колит, колит толстой кишки, антигены Ki-67, p53, BCL, экспрессия, атрофия, рассеянный склероз.

Dolzarbliği. Nospetsifik yarali kolit – inson organizmida yo‘g‘on ichak shilliq pardasining surunkali qaytalanuvchi autoimmun yallig‘lanish kasalligi bo‘lib, immun tizimni disbalansi natijasida ichak va ichakdan tashqari o‘zgarishlar va og‘irlashuvlar rivojlanishi bilan namoyon bo‘lib, ko‘pchilik holatlarda bemorlarni nogironligiga va o‘limiga sabab bo‘ladi [4].

Nospetsifik yarali kolit dunyoda har 100 ming aholiga 35-100ta xolatda uchrab, er yuzi aholisini 0,1%-dan kamroq qismida uchraydi [1]. Kasallik nisbatan ko‘proq 20 - 40 yoshgacha bo‘lgan bemorlarda kuzatiladi [5]. Nospetsifik yarali kolit bilan og‘rigan bemorlarning yillik o‘sishi 100 ming aholiga 5-20 holatni tashkil etadi [2, 3].

Nospetsifik yarali kolit 15-20% holatlarda butun yo‘g‘on ichakda total, 30-50% holatlarda chambar ichakda va 30-50% holatlarda to‘g‘ri ichakda qayd etiladi. Tizimli toksik reaksiyalar rivojlanishi, qon ketish, psevdopoliplar, toksik kengayish, ichak perforasiyasi, malignizastiyalanishi va metastazlanishi kabi ichak va ichakdan tashqari asoratlari rivojlanishiga olib kelgani uchun yarali kolitga alohida e’tibor beriladi [4].

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Nospetsifik yarali kolitda yo‘g‘on ichak shilliq pardasida rivojlanadigan disregenerator jarayonlarni turli davrlarida

immunogistokimyoviy markerlarning (Ki-67, P53, Bcl) ekspressiyalanishidagi o‘zgarishlarni o‘rganish.

Tadqiqot obyekti va usullari. Sifatida 2012-2022 yillarda ADTI klinikasi proktologiya bo‘limida surunkali nospetsifik yarali kolitni turli davrlarida jarrohlik usulida davolangan bemorlardan olingan 48ta biopsiya materiallarini patogistologik (immunogistokimyoviy usullarda) tekshiruv preparatlari taxlili ma’lumotlar olindi. Ularga 10ta yo‘g‘on ichagida patologiyasi bo‘lmagan bioptatlar nazorat guruhi sifatida olindi.


Immunogistokimyoviy tekshiruvida Bond Leica Australia (Avstraliya) immunogistoprostessordan foydalangan holda, monoklonal antitelalar orqali Ki-67, P53, Bcl antigenlarini hujayralardagi ekspressiyasi o‘rganildi.

4-5 mkm qalinlikdagi histologik kesmalar, sirpanchiq mikrotom yordamida parafin bloklaridan tayyorlangan, maxsus yopishtiruvchi (APES-asteton) bilan qoplangan buyum shisha oynachalariga joylashtirildi. Endogen peroksidazani deparafinlangan kesimlarda 3% vodorod peroksid bilan bloklandi. Antigenlarni aniqlash standart sxema bo‘yicha (Dako protocols), 0,1M stitrat buferida (rH 6,0) 600 Vt quvvatda 20 daqiqa davomida mikroto‘lqinli pechda amalga oshirildi.

Immunoperoksidaza reakstiyasidan so‘ng, histologik preparatlar gemitoksilin bilan bo‘yalib, DM-LB (Leica, Germaniya) yorug‘lik mikroskopi yordamida o‘rganildi va suratga olindi.


IGK reakstiyalaridan so‘ng, kesmalar gemitoksilin bilan bo‘yalgan va «Shandon mount TM» (USA) sintetik muhitga joylashtirildi. Ekspressiya tahlili rang intensivligi to‘qimalardagi bo‘yalgan yadrolar yoki epiteliylar stitoplazmasi miqdorini hisobga olgan holda amalga oshirildi. IGK reakstiyalari natijalari miqdoriy va yarim miqdoriy jihatdan baholandi.

Tadqiqot natijalari. Surunkali nospetsifik yarali kolitni qo‘zish davrida, shilliq qavatdagi epiteliy va mezenximal hujayralarni proliferativ ko‘rsaktichini yuqoriligi, proliferativ indeksi nazorat guruhida $8,14\pm1,12\%$ ga teng bo‘lsa, tadqiqotimizda ushbu ko‘rsatkich surunkali NYaK-ning qo‘zish davrida $38,45\pm4,56\%$ ga teng bo‘lgani aniqlandi (1-rasm). Aynan, Ki-67 markerining yuqori pozitiv ekspressiyasi shilliq qavatning epiteliylari va mezenximal hujayralarida proliferativ faollikni yuqori darajada rivojlanganligini, yuqorida ekspressiyalangan hujayra yadrolarini bo‘yalganligi bilan namoyon bo‘ldi.




1-rasm. Surunkali NYaK-ning qo‘zish davrida shilliq qavatning Ki 67 markeriga o‘rta pozitiv ekspressiyasi, shilliq qavat bez epiteliylari yadrosida to‘q jigar rangli ijobiy reakstiyasi. Bo‘yoq Dab xromogen. O‘lchami 20x10

Tadqiqotda olingan natijalar bo‘yicha, Bcl-2 markerining ekspressiyasi barcha namunalarda aniqlanib, surunkali NYaK-larning qo‘zish davrida bez epiteliylari va mezenximal hujayralarda apoptoz jarayonlari o‘tkir NYaKlarga nisbatan sekinlashganligini va Bcl-2 markerini pozitiv ekspressiyalanganligini tasdiqlaydi.. Barcha epiteliy hujayralari stitoplazmasida o‘rta miqdorda, Bcl-2 oqsili to‘q jigarrangli ko‘rinishda aniqlandi. Shu bilan birga so‘rg‘ichlar apikal qismidagi epiteliylarda Bcl-2 markerining o‘rta va yuqori darajada ekspressiyalanganligi tasdiqlandi (2-rasm). Xususiy plastinkadagi limfoid hujayralarda Bcl-2 marker past darajada ekspressiyalanganligi, shu sohadagi yallig‘lanish mediatorlari va limfokinlarga nisbatan javob reakstiyasi bo‘lib, limfogen hujayralarda apoptoz jarayoni kuchayganligini anglatdi.



2-rasm. Surunkali NYaK-ning qo‘zish davrida shilliq qavatning Bcl-2 markeriga yuqori pozitiv ekspressiyasi. Shilliq qavat bez epiteliylari yadrosida och jigar rangli ijobiy reakstiyasi, bez epiteliylari oralig‘ida, to‘q bo‘yalgan limfostitlar, bez epiteliylari stitoplazmasida kam sonli och jigar rangli kiritmalar, aksariyatida nekroz jarayonlari aniqlandi. Bo‘yoq Dab xromogen. O‘lchami 10x10

Surunkali NYaK-larning qo‘zish davrida shilliq qavatning bez epiteliylarida apoptozga qarshi bo‘lgan oqsillarning bez epiteliylari stitoplazmasida ko‘payishi, shilliq qavat bezlarida nekrobiotik jarayonlarni sekinlashganligi va asosan sklerotik jarayonlar shakllanganligini tasdiqlaydi.



3-rasm. Surunkali NYaK-ning qo‘zish davrida shilliq qavatning R53 markeriga o‘rtा pozitiv ekspressiyasi. Shilliq qavat bez epiteliylari stitoplazmasida och jigar rangli ijobiy reaksiyasi, bez hujayralari yadrolarining basal joylashishi, oraliqlarida massiv limfostitar infiltratsiya, xususiy plastinkasida basal qavatning qalinlashgan va chandiqlangan o‘choqlar aniqlandi Bo‘yoq Dab xromogen. O‘lchami 4x10

Surunkali NYaK-larni qo‘zish davrida IGX tekshiruvlarida olingan natijalar taxlil bo‘yicha, R53 markerining o‘rtा pozitiv va 3ta xolatda yuqori pozitiv ekspressiyasi jarayonda o‘smalanish foni jarayoni yuqoriliginini tasdiqlaydi (3-rasm). Surunkali NYaK-larning qo‘zish davrida eroziv nekrotik jarayonlarni bo‘lishi, jarayonda neoplaziya emas, balki o‘smalanishga fon sharoitini rivojlanayotganligini anglatdi. Bu R53 geni qoplovchi epiteliylarning ayrimlarida yadrolarini giperxrom bo‘yalishi, yiriklashganligi, och jigar rangda bo‘yalganligi bilan namoyon bo‘ldi va qoplovchi epiteliyning 8,96% aniqlangan bo‘lsa, bez shilliq qavati so‘rg‘ichlar, bez epiteliylarida esa, 18,8%ni tashkil etganligi aniqlandi.

Surunkali NYaK-larning qo‘zish davrida R53 markerining ekspressiyalanish ko‘rsatkichi o‘rtacha 16,5ni tashkil etib, o‘rtа pozitiv ekspressiyalandi.

Surunkali Nyak-ning qo‘zish davrida bez tarkibidagi barcha hujayralarda apoptoz jarayonini o‘tkir davrga nisbatan oshganligi, shilliq qavatda atrofik sklerotik ko‘rinishdagi jarayonlarni ustun turishi, shilliq qavatda surunkali ta’sirlovchilarga nisbatan morfologik adaptastiya rivojlanganligini anglatdi. Aynan, R53 geni o‘rtа pozitiv ekspressiyasi surunkali yallig‘lanish fonida, onkoproteinlarni hujayrada to‘planishi va proapoptotik stimulni yuzaga kelishini va hujayrani apoptozga tayyorlashi bilan izoxlandi. Ayni tadqiqotimizda, surunkali Nyak-ning qo‘zish davrida, R53 markerining o‘rtа pozitiv ekspressiyasi barcha tekshirilganlarning

82,16% da, 5,6% da yuqori pozitiv ekspressiyasi, 12,23% da past pozitiv ekspressiyasi yuzaga kelganligi bilan jixatlandi.

Xulosalar. NYaKlarning o'tkir davrida R53 markerining ekspressiyalanish ko'rsatkichi doim Ki-67 markeri bilan paralell ravishda yuqori pozitiv ekspressiyalandi. Yo'g'on ichak shilliq qavatlarida nekrotik jarayonni ustunligi hujayrada, onkoprotein to'planishini kamaytirish va apoptozga uchraganligini yuqori bo'lishi bilan tushuntirildi.

Surunkali NYaK-ning qo'zish davrida bez tarkibidagi barcha hujayralarda apoptoz jarayonini o'tkir davriga nisbatan oshganligi, shilliq qavatda atrofik sklerotik ko'rinishdagi jarayonlarni ustun turishi, shilliq qavatda surunkali ta'sirlovchilarga nisbatan morfologik adaptatsiya rivojlanishi bilan namoyon bo'ldi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Алексеева О.А. Проект клинических рекомендаций по диагностике и лечению язвенного колита /Алексеева О.А., Ивашкин В.Т., Шелыгин Ю.А. и др. //Колопрактология. -2019. Т.18. -№4 -с. 7-36.
2. Борисова Р.П. Теория активного транспорта лимфы и ее применение в клинике / Р.П. Борисова, Н.А. Бубнова //Вестник лимфологии. – 2012. – №2 – с. 21.
3. Киценко, Ю.Е. Непосредственные результаты формирования илеорезервуара в ранние и поздние сроки после экстренных оперативных вмешательств при осложненном язвенном колите [Текст] / Ю.Е. Киценко, С.К. Ефетов, И.А. Тулина, П.В. Царьков // Российский журнал гастроэнтерологии, гепатологии, колопроктологии. - 2018. - Т. 28, № 2. - С. 65-71.
4. Маркова А.А. Современные методы диагностики и оценки тяжести течения неспецифического язвенного колита /А.А. Маркова, Е.И. Кашкина //Вестник Тамбовского университета. Серия: Естественные и технические науки. - 2012. - Т. 17. - № 3. - с. 915-919.
5. Lo Sasso G., Khachatrian L., Danilova N.A. et al. Inflammatory Bowel Disease-Associated Changes in the Gut: Focus on Kazan Patients// Inflammatory bowel diseases. - 2021. - Vol. 27, №. 3. - Pp. 418-433